



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

## №4



# 2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, aprel.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|   |     |
|---|-----|
| O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV INFRATUZILMASINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: TARIXIY, ILMIY HAMDA BOZOR TAHLILI .....   | 32  |
| <b>A.A. Akbarov, X.R. Aliyev</b>  |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....   | 42  |
| <b>Karayev Payzillaxon Yusufxonovich</b>  |     |
| TURIZM KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY AKTIVLARINING ROLI.....   | 47  |
| <b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna</b>   |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SOLIQLAR VA TO'LOVLAR TIZIMI TAHLILI .....  | 53  |
| <b>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizozov Murodbek Madiyarovich</b>   |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA TIZIMGA KIRITILAYOTGAN O'ZGARISHLAR.....  | 59  |
| <b>Kasimova Gulyar Axmatovna, Aripova Kamola Botir qizi</b>   |     |
| MINTAQAVIY RIVOJLANISHNI KOMPLEKS BAHOLASH VA PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK VA SUN'IY INTELLEKT USULLARINING INTEGRATSIYASI .....   | 64  |
| <b>Namazov Gafur Shokulovich</b>  |     |
| BALIQCILIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA DUNYO MAMLAKATLARINING O'RNI .....  | 69  |
| <b>Beglayev Uchqun Xurramovich</b>  |     |
| KAMBAG'ALLIK FENOMENINING IJTIMOYIY-IQTISODIY VA NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI .....   | 75  |
| <b>Musulmonova Shahlo Nasriddinovna</b>   |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HISOB VA BIZNES JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI .....  | 81  |
| <b>Artikova R.A.</b>  |     |
| AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND TO'LASH QOBILİYATI KOEFFITSIYENTINING MAQBUL ORALIG'INI ANIQLASH VA UNING INVESTITSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....                                      | 88  |
| <b>Ibragimov G'anjion G'ayratovich</b>  |     |
| STRATEGIES TO RAISE AWARENESS OF NATURAL POLLUTION AMIDST RISING POPULATION DENSITY AND GDP PER CAPITA IN UZBEKISTAN .....  | 93  |
| <b>Axliddin Aropitdinovich Valiyev, Askarov Farhod Rakhmatovich</b>   |     |
| РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ESG-ОРИЕНТИРОВАННОМ РАЗВИТИИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ.....   | 99  |
| <b>Айматова Фарида Хуразовна</b>  |     |
| KORXONALARDA INVESTITSION FAOLIYATINI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....  | 107 |
| <b>Shukurillaev Jahongir Botir o'g'li</b>   |     |
| DEHQON XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA KREDITLAR MIQDORINI DIFFERENSIYALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR .....  | 113 |
| <b>Xakimov Zafar Ibragimovich</b>   |     |
| KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI .....   | 118 |
| <b>Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna</b>   |     |
| RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....   | 124 |
| <b>Muhammadieva Nodira</b>  |     |
| SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA HUDUDIY RIVOJLANISHNI STATISTIK HISOBLASH METODOLOGIYASINI QAYTA BAHOLASH MEZONLARI (SCOPUS VA WEB OF SCIENCE DA INDEKSLANGAN ILMIY NASHRLAR TAHLILI ASOSIDA)..... | 131 |
| <b>Santjar Abdumurodovich Sattorov</b>  |     |
| QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY-IQTISODIY OMILLARI VA ISTIQBOLLARI .....  | 139 |
| <b>Allamuratova Perida Maxsetbaevna</b>   |     |



|   |     |
|---|-----|
| XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI VA AHAMIYATI .....                                     | 144 |
| Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna, Yarmetova Nargiza Shiximbayevna   |     |
| MAHALLIY VA XALQARO TURIZM BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI, TAMOIYILLARI VA MEXANIZMLARI .....                                   | 152 |
| Alikulov Samar Abdurashidovich  |     |
| TRANSPORT XIZMATLARINING SOHALAR BO'YICHA TAQSIMOTI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TASNIFI .....   | 159 |
| Karimova Shaxnoza Uktamovna   |     |
| RAQAMLI TO'LOVLAR VA O'ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUV SHAFFOFLIGI .....   | 165 |
| Ruziyeva Barno Yadgarovna   |     |
| TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA TO'LOV XIZMATLARINI RAQAMLI MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH .....  | 168 |
| Maxmudov Boburbek Axmedjan o'g'li   |     |
| ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ .....                                  | 172 |
| Ташпулатов Дильмурад Рустамович   |     |
| MAJBURIY IJRO HARAkatLARINI RAQAMLASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....   | 177 |
| Matmuratova Nasiba Azatovna   |     |
| OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI CHEKLOVCHI OMILLAR TAHLILI .....  | 181 |
| Pulatov Abdulla   |     |
| INVESTITSION LOYIHALARNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA ULARNI MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....   | 185 |
| Nazarov Aziz Avazovich  |     |
| ФИНАНСОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ .....   | 190 |
| Тажибаева Кызларгул Ажиниязовна   |     |
| IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING MAQSADLI PROGNOZ PARAMETRLARI ..... | 197 |
| Omonova Nafisa Qahramon qizi  |     |
| MANAGEMENT STRATEGIES IN WOMEN'S BUSINESS: GENDER-SPECIFIC APPROACHES, INNOVATIVE MODELS, AND DIGITAL TRANSFORMATION .....                            | 200 |
| Ahrorova Asila  |     |
| TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI .....   | 207 |
| Hakimova Oydina Abdulhamidovna, Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna  |     |
| INSON TARAQQIYOTI INDEKSI VA UNI ANIQLAB BERUVCHI KO'RSATKICHLARNING KORRELYATSION-REGRESSION TAHLILI .....   | 212 |
| Tursunov Rasul Tairovich  |     |
| ТРАНСФОРМАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА НА МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ .....                           | 218 |
| Эргашева Феруза Насруллаевна  |     |
| ENHANCING THE METHODOLOGICAL FRAMEWORK FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF TOURISM VILLAGES IN UZBEKISTAN .....  | 226 |
| Khudaynazarova Dilorom Khayrullaevna  |     |
| THE ROLE OF INNOVATION IN ENSURING COMPETITIVENESS IN THE GREEN ECONOMY .....   | 231 |
| Musadjanova Nargiza Abduvoxid qizi  |     |
| O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINING O'RNI VA SAMARADORLIGI .....   | 238 |
| Saodat Sadriddinova   |     |
| OLIY TA'LIMDA CHET TILLARNI O'QITISH UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH .....   | 243 |
| Saida Xabibullayeva   |     |



|  |     |
|--|-----|
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИСКАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ В СФЕРЕ ТУРИЗМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....  | 247 |
| Исматиллаева Роза Тухтамуратовна, Тураева Сурия Тельмановна  |     |
| INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASHTERINING QIYMAT YARATISH UZLUKSIZ ZANJIRIDA AGROSERVIS XIZMATLARI KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH ..... | 252 |
| Kudratova Iroda Turdibayevna   |     |
| QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTIDA DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI .....  | 257 |
| Nurullayeva Raushan Koptleuovna, Nurimbetov Timur Uzaqbergenovich  |     |
| FIZIKA UMUMIY KURSIGA NANOTEKNOLOGIYA TUSHUNCHALARINI KIRITISHNING METODIK ASPEKTLARI VA KOMPONENTLARI .....   | 260 |
| Sottarov Abduvali Umirqulovich   |     |
| BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK HISOBOTLAR VA ULARNING TUTGAN O'RNI.....  | 266 |
| Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich  |     |
| YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....  | 272 |
| Rahmanova Sitara Bahodir qizi  |     |
| SANOAT KORXONALARIDA OPERATSION MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....   | 277 |
| Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich   |     |
| IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH.....                                       | 283 |
| Turotova Nigora Xolmurod qizi  |     |
| QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION INVESTITSIYALASH VA MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI JORIY ETISH (SIRDARYO VILOYATI MISOLIDA) .....                         | 286 |
| Maxamadiyev Turg'unboy Jumabayevich  |     |



# QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION INVESTITSİYALASH VA MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI JORIY ETISH (SIRDARYO VILOYATI MISOLIDA)

**Maxamadiyev Turg'unboy Jumabayevich**

Guliston davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

ORCID 0009-0004-6809-918

email [t.mahamadiev88@gmail.com](mailto:t.mahamadiev88@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Sirdaryo viloyati misolida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish hamda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga bag'ishlangan. Tadqiqotda sohaga investitsiya jalb qilishning xorijiy (AQSh, Yel, Rossiya, Qozog'iston) tajribasi tahlil qilingan. 2023-2024-yillar statistikasi asosida viloyat agrar sektorining moliyaviy holati baholanib, suv va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishdagi muammolar aniqlangan. Natijada, hududiy kredit uyushmalarini tashkil etish, omborxonaga guvohnomalari asosida kreditlash hamda natijadorlikka asoslangan subsidiyalar tizimini joriy qilish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Qishloq xo'jaligi, investitsiya mexanizmlari, Sirdaryo viloyati, muqobil moliyalashtirish, mikromoliyalash, yashil texnologiyalar, davlat subsidiyalari, xalqaro tajriba, kredit kooperativlari.

**Abstract.** This article focuses on sustainable agricultural development and improving financing mechanisms, using the Sirdaryo region as a case study. It analyzes international experience (USA, EU, Russia, Kazakhstan) and investment processes in the agricultural sector. Based on 2023-2024 statistics, the region's agricultural financial status was assessed, highlighting challenges in funding water- and energy-saving technologies. Consequently, practical recommendations are proposed, including the introduction of performance-based subsidies, the establishment of regional credit unions, and the expansion of warehouse receipt financing.

**Key words:** Agriculture, investment mechanisms, Syrdarya region, alternative financing, microfinance, green technologies, state subsidies, international experience, credit cooperatives.

**Аннотация.** Статья посвящена вопросам устойчивого развития и совершенствования механизмов финансирования сельского хозяйства на примере Сырдарьинской области. Проанализирован зарубежный опыт (США, ЕС, РФ, Казахстан) и инвестиционные процессы в аграрном секторе. На основе статистики 2023-2024 гг. оценено финансовое состояние сельского хозяйства региона и выявлены проблемы внедрения водо- и энергосберегающих технологий. По итогам исследования предложены практические меры: внедрение субсидий на основе результативности, создание региональных кредитных союзов и расширение кредитования по складским свидетельствам.

**Ключевые слова:** сельское хозяйство, инвестиционные механизмы, Сырдарья, альтернативное финансирование, микрофинансирование, зеленые технологии, государственные субсидии, международный опыт, кредитные кооперативы.

## KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyotda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish davlatlarning ustuvor maqsadidir. Yuqori xatarlarga moyil bo'lgan qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish uchun faqatgina davlat subsidiyalari yoki qimmat bank kreditlariga tayanib qolish yetarli emas; sohaga moslashuvchan investitsiya mexanizmlari zarur.

Tadqiqotning asosiy shart-sharoitlari: Respublika miqyosidagi islohotlar: O'zbekiston agrar sektori ma'muriy-buyruqbozlikdan voz kechib, erkin bozor tamoyillari (klasterlar, ekinlar diversifikatsiyasi)ga o'tmoqda. Bunga Prezidentning PF-5853-sonli Farmoni (2019-yil) bilan tasdiqlangan «2020–2030-yillarga mo'ljallangan qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi» huquqiy asos bo'lib, unda davlat ishtirokini kamaytirish va xususiy investitsiyalarni jalb qilish belgilangan.



Sirdaryo viloyatining o'ziga xosligi: Viloyat strategik qulay hududda joylashgan bo'lsa-da, tuproq sho'rlanishi, sizot suvlari va sug'orish suvi taqchilligi kabi jiddiy muammolarga ega. Shu sababli sohaga innovatsion va resurs tejankor «yashil» investitsiyalar kerak. Shuningdek, hududda kichik biznesning ulushi yuqori bo'lishiga qaramay, ularning arzon moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati cheklangan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligida investitsiyalash va moliyalashtirish mexanizmlarini o'rganish iqtisodiy nazariyaning klassik davridan boshlab hozirgi zamonaviy ilmiy yondashuvlarga bo'lgan keng qamrovli tadqiqotlarni o'z ichiga oladi.

Dastlabki nazariy asoslar fiziokratlar maktabi vakillari tomonidan yaratilgan bo'lib, Fransua Kene (F. Quesnay) o'zining "Iqtisodiy jadval" asarida qishloq xo'jaligini jamiyatdagi sof qo'shimcha qiymat yaratuvchi asosiy tarmoq sifatida talqin etgan (Quesnay, 1758). Ushbu yondashuvga ko'ra, agrar sektor iqtisodiy o'sishning boshlang'ich manbai hisoblanadi.

Fiziokratlar g'oyalarini rivojlantirgan A.R.J. Tyurgo esa kapital va investitsiya jarayonlarini chuqurlashtirib tahlil qilgan. U o'zining "Boylikning shakllanishi va taqsimlanishi to'g'risida mulohazalar" asarida ishlab chiqarishni boshlash uchun zarur bo'lgan "avans kapitali" tushunchasini ilgari suradi (Turgot, 1766). Tyurgoning fikricha, qishloq xo'jaligida mablag'lar mavsum boshida sarflanib, daromad faqat hosil yig'ilgach olinadi, bu esa moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi.

Klassik iqtisodiyot vakillari – A. Smit va D. Rikardo – kapitalning erkin harakati va resurslarning samarali taqsimlanishi iqtisodiy o'sishning muhim omili ekanligini asoslab berdilar (Smith, 1776; Ricardo, 1817). Ularning nazariyalarida investitsiya samaradorligi va foyda normasi muhim ahamiyat kasb etadi. K. Marks esa kapital aylanishi va qo'shimcha qiymat nazariyasi orqali ishlab chiqarish jarayonida kapitalning rolini yanada chuqurroq ochib berdi (Marx, 1867).

XX asrda iqtisodiy fikr rivojlanib, investitsiyalarni davlat tomonidan tartibga solish masalalari dolzarb bo'ldi. J.M. Keynes investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri ekanligini ta'kidlab, davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvini asoslab berdi (Keynes, 1936). J. Shumpeter esa innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida ko'rib, yangi texnologiyalar va tadbirkorlik faoliyatining ahamiyatini alohida qayd etdi (Schumpeter, 1934).

Agar klassik iqtisodiyot nazariyalari va kapital harakati qonuniyatlarini Sirdaryo viloyatining bugungi kundagi qishloq xo'jaligi amaliyotiga tatbiq etadigan bo'lsak, juda chuqur iqtisodiy tahlil va xulosalar kelib chiqadi.

Birinchidan, foyda normalarining tenglashuvi qonuniga ko'ra, Sirdaryo viloyatidagi fermerlar, klasterlar yoki agrofimlar qishloq xo'jaligiga investitsiya kiritishi uchun ushbu tarmoqdan olinadigan kutilayotgan daromad stavkasi bankdan olinadigan depozit foizlari yoki savdo sohasidagi rentabellikdan kam bo'lmashligi kerak. Agar hududda suv taqchilligi yoki yerlarning sho'rlanishi natijasida hosildorlik tushib ketsa, qishloq xo'jaligining kapital keltiruvchi "sof sovg'asi" yo'qoladi va xususiy investorlar o'z mablag'larini boshqa tarmoqlarga, masalan, Shirin shahridagi sanoat va energetika obyektlariga ko'chiradi.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi faoliyatining mavsumiyligi sababli, Sirdaryodagi dehqonlarning kassa uzilishi (pul yetishmovchiligi) davri yuzaga keladi. Ya'ni, Tyurgo aytgan «avanslar» urug', o'g'it va yoqilg'i uchun yil boshida sarflanadi, biroq hosil yil oxirida yig'ishtirilib, pulga aylanadi. Bu vaqt oralig'ini moliyalashtirish uchun albatta kuchli va arzon kredit resurslariga ehtiyoj seziladi.

Uchinchidan, O'zbekiston tijorat banklari yoki mikromoliya tashkilotlari tomonidan taklif etilayotgan qarz mablag'larining narxi (yillik 32-56 foizgacha) qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy unumdorlik darajasidan bir necha barobar yuqoridir. Iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan, kapital o'zining yaratuvchanlik qiymatidan qimmatroq sotilsa, qarz oluvchi bankrotlikka yuz tutadi. Shuning uchun ham agrar sektorda davlat aralashuvi, subsidiya va imtiyozli stavkalarni ta'minlovchi muqobil investitsiya mexanizmlariga ehtiyoj iqtisodiy zarurat hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb etish usullari mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti, tarixiy rivojlanish bosqichi hamda institutsional bazasi xususiyatlariga qarab turli xil yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Jahon tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan va jadal rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat byudjeti bilan bir qatorda kooperativ institutlar, ixtisoslashgan banklar hamda raqamli moliya texnologiyalari keng qo'llanilmoqda.

O'zbekiston bilan geografik va iqtisodiy jihatdan eng o'xshash bo'lgan Qozog'istonda agrosektorni moliyalashtirish mexanizmlari ham e'tiborga molik. Qozog'istonda bu vazifa asosan «Agrar kredit korporatsiyasi» AJ (AKK) va «KazAgroFinans» kabi ixtisoslashgan institutlar orqali markazlashtirilgan tarzda amalga oshiriladi. AKK moliyalashtirish tizimini ikkiga bo'lgan holda boshqaradi: bevosita kreditlash va moliya institutlarini (ikkinchi darajali banklar, kredit shirkatlari, mikromoliya tashkilotlari) fondlashtirish. Qozog'iston amaliyotidagi eng samarali vositalardan biri bu – «Kredit bo'yicha mukofot stavkasini subsidiyalash» mexanizmidir. Milliy bank bazaviy stavkasiga birlashtirilgan tijorat kreditlari bo'yicha fermer bor-yo'g'i yillik 6 foizni to'laydi, stavkaning



qolgan barcha bozor qismi davlat byudjetidan to'g'ridan-to'g'ri tijorat bankiga qoplab beriladi. Shuningdek, Qozog'istonda «Investitsion subsidiyalar» mexanizmi ham mavjud. Texnika yoki asbob-uskuna sotib olish xarajatlarining ma'lum foizi (ko'pincha lizing boshlang'ich badali sifatida 15-25 foizi) byudjet hisobidan avans tarzida yopib beriladi. Qozog'istonning yana bir muvaffaqiyatli tajribasi bu Kezekte.kz portaliga asoslangan raqamli agrosug'urta tizimi bo'lib, unda fermerlar hosil nobud bo'lish xatarini sug'urtalaganda, sug'urta badalining 80 foizini davlat o'z zimmasiga oladi.

O'zbekistonda agrar sohani qo'llab-quvvatlash va investitsiya iqlimini yaxshilash strategik darajadagi davlat siyosatiga aylangan. 2017-yildan buyon amalga oshirilgan islohotlar asosan erkinlashtirish, bozor mexanizmlariga o'tish, narxlarni shakllantirishdagi davlat aralashuvini cheklash va klaster tizimini yaratishga qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi (PF-5853-sonli Farmon) sohaga kiritilayotgan investitsiyalarni davlat mablag'laridan xususiy sarmoyalarga yo'naltirishning huquqiy poydevori hisoblanadi. Strategiya 9 ta ustuvor yo'nalishni o'z ichiga olib, ulardan eng asosiylari qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, davlat ishtirokini kamaytirish, tabiiy resurslar – xususan yer va suvdan – oqilona foydalanish hamda qishloq joylarida ta'lim-innovatsiya xizmatlarini (AKIS) shakllantirishdan iboratdir. Yer qonunchiligi takomillashtirilib, «Dehqon xo'jaligi to'g'risida» (O'RQ-680) va «Tomorqa xo'jaligi to'g'risida»gi qonunlar bilan qishloq xo'jaligi subyektlarining moliyaviy resurslar, lizing va sug'urta tizimlaridan erkin foydalanish huquqlari kengaytirildi.

Tijorat banklarining ulkan xarajatlari va murakkab garov talablariga muqobil ravishda O'zbekistonda nobank moliya sektori huquqiy bazasi shakllantirildi. 2022-yilda «Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida»gi (O'RQ-765) Qonun qabul qilindi. U MMTlarga yangi xizmatlarni (islom moliyasi) ko'rsatish, raqamli innovatsiyalarni «regulyativ qumdon» doirasida sinash ruxsatini berdi. Prezidentning 2023-yildagi PQ-364-sonli qaroriga ko'ra, MMTlar faoliyatida keskin o'sish ko'zlanmoqda: mikroqarzar limiti 100 mln so'mgacha oshirildi; ularga chet el valyutasida xorijdan resurslar jalb qilish huquqi berildi; «Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi» AJ orqali kafillik olish imkoni taqdim etildi. Biroq, ushbu qulay sharoitlarga qaramay, qonunchilik bilan berilgan imkoniyatlarning hududlarda amaliyotga joriy etilish darajasi pastligicha qolmoqda.

O'zbekiston xaritasida Sirdaryo viloyati o'zining ixtisoslashgan agrar-sanoat salohiyati bilan alohida o'ringa ega. Viloyat hududining iqlimi issiq yozli va nisbatan sovuq qishli, yillik quyosh nuri tushish davomiyligi 3000 soatdan ortiq bo'lgan kontinental tipga mansub. Asosiy yer maydonlari qishloq xo'jaligi ekinlarini (paxta, g'alla, sholi, poliz va bog'dorchilik) yetishtirishga mo'ljallangan bo'lib, sug'oriladigan yerlar kesimida sho'rlanish, suv taqchilligi va sizot suvlari sathining balandligi xos muammolar qatoriga kiradi.

Statistik ma'lumotlarning chuqur tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda qishloq xo'jaligiga ajratilgan davlat e'tibori natijasida ishlab chiqarish barqaror o'sib bormoqda. Sirdaryo viloyatida 2023-yil yakunlari bo'yicha jami qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlari) hajmi 14 675,1 milliard so'mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan real ifodada 106,4 foiz o'sish ko'rsatkichiga erishilgan. Ushbu umumiy hajmdan:

- Dehqonchilik, chorvachilik va xizmatlar – 13 892,0 mlrd. so'm (94,7 foiz ulush, 106,4% o'sish) ;
- O'rmon xo'jaligi – 615,1 mlrd. so'm (4,2 foiz ulush, 103,3% o'sish) ;
- Baliqchilik xo'jaligi – 168,0 mlrd. so'm (1,1 foiz ulush, 125,7% o'sish).

E'tibor berilsa, baliqchilik tarmog'ida investitsiyalarning samardorligi eng yuqori bo'lib, bir yil ichida qariyb 25 foizlik qo'shilgan o'sish ta'minlangan. Bu viloyatning Sirdaryo daryosi havzasidagi tabiiy ko'llari va sun'iy hovuzlarini klasterlashtirish siyosati o'zining investitsiyaviy oqlanishini ko'rsatadi.

2024-yil yakunlariga ko'ra, Sirdaryo viloyatining qishloq xo'jaligi sektori barqaror rivojlanish tendensiyasini saqlab qoldi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga asosan, viloyatda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmi 15 trillion so'mdan oshib, 2023-yilga nisbatan real ifodada o'rtacha 5,8–6,5 foiz o'sish sur'ati qayd etildi. Ushbu holat agrar sektorda amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar, klaster tizimining kengayishi hamda investitsiya oqimlarining nisbatan faollashuvi bilan izohlanadi.

Tarmoqlar kesimida tahlil qilinganda, ishlab chiqarish hajmining asosiy qismi dehqonchilik va chorvachilik hissasiga to'g'ri kelib, ularning ulushi 94–95 foizni tashkil etdi. O'rmon xo'jaligi 4 foiz atrofida, baliqchilik esa 1,5–2 foiz ulush bilan qatnashdi. Shu bilan birga, baliqchilik tarmog'ida yuqori o'sish sur'atlari (120 foizdan yuqori) kuzatilib, ushbu yo'nalish investitsion jihatdan istiqbolli segment sifatida shakllanayotganini ko'rsatdi.

Hududlar kesimidagi o'sish sur'atlari notekis bo'lib, ayrim tumanlarda yuqori iqtisodiy faollik kuzatildi. Xususan, Mirzaobod tumanida o'sish sur'ati 114–115 foizni tashkil etib, viloyatda yetakchi o'rinni egalladi. Xovos va Sirdaryo tumanlarida ham mos ravishda 107–108 foizlik o'sish qayd etildi. Aksincha, Guliston va Shirin shaharlari kabi urbanizatsiya darajasi yuqori hududlarda o'sish sur'ati nisbatan past (100–101 foiz) bo'ldi. Bu holat investitsiya resurslarining hududlar bo'yicha notekis taqsimlanganligi va agrosanoat infratuzilmasining rivojlanish darajasidagi tafovutlar bilan bog'liq.

Investitsiyalar dinamikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, 2024-yil yakunida viloyatda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 8,5–9 trillion so'm atrofida shakllandi. Biroq o'sish sur'atining 2023-yilga nisbatan 75–80



foiz darajasida qayd etilishi investitsion faollikning ma'lum darajada pasayganini bildiradi. Bunga avvalgi yillarda amalga oshirilgan yirik investitsion loyihalarning yakuniy bosqichga o'tganligi hamda yangi loyihalar oqimining nisbatan sekinlashuvi sabab bo'lishi mumkin.

Moliyalashtirish manbalari tarkibida jalb qilingan mablag'lar mutlaq ustunlikka ega bo'lib, ularning ulushi 83–85 foizni tashkil etdi. O'z mablag'lari esa atigi 15–17 foiz darajasida shakllandi. Jalb qilingan mablag'lar tarkibida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi 50 foizga yaqin bo'lib, asosiy moliyaviy yuk aynan tashqi kapital hissasi to'g'ri kelmoqda. Tijorat banklari kreditlarining ulushi 5–7 foiz atrofida bo'lib, bu ularning agrar sektorni moliyalashtirishdagi roli cheklanganligini ko'rsatadi.

Mazkur holatni iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan tahlil qilganda, investitsiyalar va ishlab chiqarish o'rtasida o'rtacha darajadagi ijobiy bog'liqlik mavjudligi kuzatiladi. Shartli regressiya yondashuviga ko'ra, investitsiyalarning 1 birlikka oshishi ishlab chiqarish hajmini o'rtacha 0,35–0,45 birlikka oshiradi. Bu esa investitsiya samaradorligi mavjud bo'lsa-da, uning yuqori darajada emasligini bildiradi.

2024-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning qishloq xo'jaligidagi roli yanada kuchaydi. Ushbu sektor tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hajmning 97–98 foizini tashkil etdi. Shu bilan birga, investitsiyalardagi ulushi 70–73 foiz atrofida bo'ldi. Bu esa agrar sektorning asosiy ishlab chiqaruvchilari aynan kichik xo'jaliklar ekanligini tasdiqlaydi. Biroq moliyalashtirish tizimining ularga to'liq moslashmaganligi natijasida moliyaviy nomutanosiblik yuzaga kelmoqda.

Statistik tahlil yakunlari qator tizimli muammolar mavjudligini ham ko'rsatadi. Jumladan, tijorat kreditlari bo'yicha yuqori foiz stavkalari (20–30 foizdan yuqori) investitsiya faolligini cheklamoqda. Shuningdek, investitsiyalarning asosiy qismi tashqi manbalarga bog'liq bo'lib, bu moliyaviy barqarorlikka xavf tug'diradi. Korxonalarining o'z mablag'lari ulushining pastligi esa kapitalning ichki akkumulyatsiyasi sustligini bildiradi. Bundan tashqari, innovatsion va ilmiy loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi texnologik modernizatsiyani sekinlashtirmoqda.


Umuman olganda, 2024-yil yakunlari Sirdaryo viloyatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqaror o'sayotganini ko'rsatsa-da, ushbu o'sish asosan Nazariy jihatdan (A.R.J. Tyurgo va J.M. Keynes yondashuvlari asosida), bunday model uzoq muddatda barqaror hisoblanmaydi, chunki unda ichki kapitalning o'z-o'zini kengaytirish imkoniyatlari cheklangan va moliyaviy risklar yuqori darajada saqlanib qoladi (1-jadval).

#### 1-jadval. Sirdaryo viloyati tumanlari kesimida qishloq xo'jaligi o'sish sur'atlari

| Tuman/Shahar nomi | O'sish sur'ati (%)<br>2024/2023 | Tahliliy sharh  |
|-------------------|---------------------------------|---|
| Sirdaryo viloyati | 104,3 %                         | Barqaror o'sish   |
| Mirzaobod tumani  | 114,4 %                         | Yirik agrologistik klasterlarning faollashuvi hisobiga eng yuqori o'sish. |
| Sirdaryo tumani   | 108,6 %                         | Chegara hudud xususiyatlaridan samarali foydalanish.                      |
| Yangiyer shahri   | 108,3 %                         | Agrosanoat infratuzilmasini rivojlantirish natijalari.                    |
| Xovos tumani      | 107,6 %                         | Issiqxona va bog'dorchilikka kiritilgan xususiy investitsiyalar samarasi. |
| Guliston shahri   | 100,6 %                         | Urabnizatsiya markazi, ishlab chiqarish potentsialiga cheklovlar ta'siri. |
| Shirin shahri     | 101,5 %                         | Asosiy e'tibor sanoat va energetikaga qaratilgan.                         |
| Sayxunobod tumani | 103,8 %                         | O'rtacha rivojlanish darajasi, qo'shimcha rag'batlantirishni talab etadi. |

(Manba: Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida umumlashtirildi)

So'nggi statistik ma'lumotlarga ko'ra, Sirdaryo viloyatida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2025-yilning yanvar–dekabr holatiga nisbatan 145,2% ga oshgan. Bu viloyat iqtisodiyotida sarmoyalarning kengayishidan darak beradi. Regression model yordamida Sirdaryo viloyati ishlab chiqarish hajmini investitsiyalarga bog'likligi tahlil qilindi (1-rasm).



1-rasmda investitsiyalar (I) va ishlab chiqarish (Y) o'rtasidagi bog'liqlik regressiya chizig'i orqali ko'rsatilgan. Natijalarni quyidagicha tahlil qilish mumkin:

1. Ijobiy bog'liqlik mavjud Nuqtalar va regressiya chizig'ining yuqoriga yo'nalganligi investitsiyalar oshgani sari ishlab chiqarish ham ortishini ko'rsatadi. Bu — to'g'ri (pozitiv) korrelyatsiya mavjudligini anglatadi.

2. Bog'liqlikning kuchi (kuchli yoki o'rtacha kuchli) Nuqtalar regressiya chizig'i atrofida nisbatan yaqin joylashgan, bu esa:

- investitsiyalar va ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqlik o'rtacha kuchli yoki kuchli ekanligini bildiradi;
- tasodifiy tebranishlar mavjud, lekin umumiy trend aniq.

3. Chiziqli model mosligi Grafikdagi regressiya chizig'i ma'lumotlarni yaxshi ifodalaydi, ya'ni:

- chiziqli model mos keladi;
- ishlab chiqarish investitsiyalarga deyarli chiziqli tarzda bog'liq.

4. Tarqalish (dispersiya) Ma'lum darajada nuqtalar regressiya chizig'idan uzoqlashgan:

· bu boshqa omillar (texnologiya, mehnat resurslari, samaradorlik va boshqalar) ham ishlab chiqarishga ta'sir qilayotganini ko'rsatadi.

5. Amaliy xulosa

- Investitsiyalarni oshirish ishlab chiqarishni sezilarli darajada oshiradi.
- Ushbu grafik investitsiya siyosati iqtisodiy o'sishning muhim drayveri ekanini tasdiqlaydi.
- Regression model yordamida ishlab chiqarish hajmini investitsiyalar asosida prognoz qilish mumkin.

Sirdaryo viloyatida 2023-yil va 2024-yilda xorijiy investorlar, jumladan BAA ning «Industrial Innovation Group» hamda «RS Success Agro» MChJ kabi qo'shma korxonalar tomonidan amalga oshirilayotgan qishloq xo'jaligi loyihalari (ularning faoliyati yirik ekin turlarini sinovdan o'tkazish va qayta ishlashga qaratilgan) ham o'z salmog'iga ega bo'lib, kelgusida ijobiy drayver vazifasini o'tashi kutilmoqda.

Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari nuqtai nazaridan vaziyat ancha e'tibor talab qiladi. Qoidalarga ko'ra, investitsiya muhiti qanchalik barqaror bo'lsa, u yerdagi korxonalar asosan o'zlarining qayta moliyalashtirilgan daromadlari hisobidan sarmoya kiritishadi.

Sirdaryo viloyatida jami investitsiyalarning:

· 84,7 foizi (4 796,9 mlrd. so'm) – jalb etilgan mablag'lar (xorijiy kreditlar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, bank kreditlari va byudjet mablag'lari) orqali yopilmoqda.

· Bor-yo'g'i 15,3 foizi (865,4 mlrd. so'm) – korxonalar va aholining o'z mablag'lari hisobidan shakllangan.

Kengroq yondashilsa, aynan korxonalarning o'z mablag'lari ulushi 12,6 foizni (712,6 mlrd so'm) tashkil qilgan.

Turgot va zamonaviy kapital bozorlari nazariyasi orqali bu raqamlarni tahlil qilsak: Sirdaryodagi qishloq xo'jaligi va sanoat subyektlari (shu jumladan fermer xo'jaliklari va klasterlar) o'zlarining faoliyati orqali sarmoyani kengaytirish uchun yetarli miqdorda «sof qoldiq» yoki sof foyda hosil qila olmayaptilar (yoki ularni to'liq oborotdan chiqarib olmoqdalar). Ular muttasil tarzda tashqi qarz va bank kreditlariga tayanib qolgan. Bunday yuqori leverage (qarz yuki) holati agar bank foizlari oshsa yoki bozor konyunkturasi pasaysa, qishloq xo'jaligida ommaviy defollarni (bankrotlik) keltirib chiqarish xavfini anglatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro tajriba (AQSh, Yel, Qozog'iston) va tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqlim va tabiat xatarlari yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi oddiy bank kreditlariga emas, balki muqobil moliyalashtirish institutlariga (kooperativlar,



fondlar) muhtoj. So'nggi yillarda sohaga katta islohotlar kirib kelgan bo'lsa-da, Sirdaryo viloyatida quyidagi muammolar saqlanib qolmoqda:

- Viloyat agrar sohasining 97,7 foizi kichik biznes hissasiga to'g'ri kelsa-da, ularni moliyalashtiruvchi mikromoliya tashkilotlari (MMT) deyarli yo'q (bor-yo'g'i 1 ta).
- Tarmoq o'z sarmoyasidan ko'ra xorijiy va qarz mablag'lariga o'ta qaram bo'lib qolgan (85% gacha). Bu esa tavakkalchilik (leverage risk) ni keskin oshiradi.
- Tuproq sho'rlanishi kabi muammolarga qaramay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish uchun to'g'ridan-to'g'ri venchur (tavakkal) sarmoyalar yetishmaydi.

Sirdaryo viloyati bo'yicha 4 ta amaliy taklif:

1. Qishloq xo'jaligi kredit kooperativlarini yaratish (AQSh tajribasi): Tashqi qarzlarni hisobidan emas, balki dehqon va fermerlarning o'z pay badallari (2-5%) hamda xalqaro donorlar subsidiyasi hisobidan shakllanadigan, ishtirokchilarga arzon resurslar yetkazib beruvchi o'z-o'zini boshqaruvchi institutlar tarmog'ini (Boyovut, Xovos, Sayxunobodda) tashkil etish.

2. Natijadorlikka asoslangan subsidiyalar tizimi (Qozog'iston tajribasi): Yashil texnologiyalar uchun davlat subsidiyalarini lizingning boshlang'ich to'lovi (avansi) sifatida yo'naltirish. Agar uskunalar va'da qilingan natijani (masalan, hosildorlikni 10% oshirish yoki suvni tejash) bermasa, subsidiya byudjetga qaytarilishi bo'yicha qat'iy mexanizm o'rnatish.

3. Mikromoliyalashtirishni arzonlashtirish (Revolver fondlar): Bozordagi hozirgi qiymat (yillik 32-56%) mikrokreditlar o'rniga, xalqaro va davlat fondlari orqali MMTlarga arzon resurslar taqdim etish. Buning evaziga MMTlar uchun qishloq xo'jaligi kreditlari foizini yillik 14-16% gacha cheklash (cap) talabini qo'yish.

4. Omborxonaga guvohnomalari va faktoringni joriy etish: Sirdaryoning tranzit salohiyatidan (M39/M34) foydalanib, klaster omborlarida saqlanayotgan hosil uchun «Omborxonaga sertifikat» berish tizimini yaratish. Ushbu sertifikat yordamida dehqonlar lombard yoki faktoring usulida keyingi mavsum uchun barvaqt sarmoya olishlari mumkin bo'ladi.

Kutilayotgan natija: Ushbu muqobil vositalarning joriy etilishi Sirdaryo viloyatida agrar sohaning investitsion jozibadorligini oshiradi, barqaror ish o'rinlari yaratadi va hududning iqlim o'zgarishlariga bardoshlilikini mustahkamlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Nobank kredit tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni. – 2022 <https://lex.uz/docs/-5972411>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5853-son Farmoni. – 2019 <https://lex.uz/docs/-4567334>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-364-son Qarori. – 2023 <https://lex.uz/docs/-6658627>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-144-son Qarori. – 2022 <https://lex.uz/uz/docs/-5884584>
5. UNDP. Agricultural Finance in Uzbekistan. – Tashkent, 2024.
6. GGGI. Agriculture Sector Review in Uzbekistan. – 2022.
7. World Bank. Enabling the Business of Agriculture. – Washington, 2023.
8. OECD. Agricultural Policy Monitoring and Evaluation. – Paris, 2022.
9. Quesnay F. Tableau Économique. – 1758.
10. Turgot A.R.J. Reflections on the Formation and Distribution of Wealth. – 1766.
11. Smith, A. (1776). An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London.
12. Ricardo, D. (1817). Principles of Political Economy and Taxation. London.
13. Schultz, T.W. (1964). *Transforming Traditional Agriculture*. Yale University Press.
14. FAO. Innovative Financing for Agriculture. – Rome, 2021.
15. KazAgro. Annual Report. – Astana, 2023.
16. European Commission. Common Agricultural Policy (CAP). – 2023.
17. USA Farm Credit System Report. – 2022.
18. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. – 2023–2024.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 4

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---